SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 25 - fevral 65-9-131-Q/22 Shirin shahar hokimligi

Shirin shahar hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash borasida avtomobil yo‘llarini ta’mirlash hamda yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

Shirin shahar hududida transport vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l transport hodisalarining oldini olish transport vositalarining harakatlanishini tartibga solish borasida shahar hududidan o‘tuvchi yo‘llarning ayrim joylariga zaruriy yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalari, 2013-yil 10-apreldagi “Yo’l harakati xavfsizligi to’g’risida”gi O’RQ-348-son Qonuni ijrosi va Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrdagi “Yo’l harakati qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi VM-370-son hamda 2019-yil 9-apreldagi “Yo’l harakati qoidalariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi VM-292-son qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida, **qaror qilaman:**

1. Shirin shahar IIB YXXB E. Bayzakov, Boyovut tumani yo‘llardan foydalanish UK:

1.1 Qoqon-Jizzax (A-376) yo‘lining 190-191 km.ga “Sirdaryo IES” AJ ko‘prigidan Nurobod mahallasi hududigacha bo‘lgan masofadagi ta’mirtalab yo‘llarni ta’mirlash, 3.20-quvib o‘tish ta’qiqlangan, 3.25-yuqori tezlikni cheklovchi yo‘l belgilari;

1.2 Boyovut-Shirin (4N-660) yo‘lining 22-30 km.ga “Dala xovli”dan “Farhod GES ko‘prigigacha bo‘lgan masofadagi ta’mirtalab yo‘llarni ta’mirlash, “Dala xovli”, Xalqlar Do‘stligi-Yurtsevar, Xalqlar Do‘stligi-Ibn Sino, Xalqlar

Do‘stligi-Axillik ko‘chalari kesishmasiga 3.20-quvib o‘tish taqiqlangan, 3.25-yuqori tezlikni cheklovchi, 7.1.2-masofani cheklovchi yo‘l belgilari;

1.3 Boyovut-Shirin (4N-660) yo‘lining 22-km.ga “Dala xovli” hududiga, Qoqon-Jizzax (A-376) yo‘lining 191 km.ga Nurobod mahallasi, 187- km Xalqlar Do‘stligi ko‘chasi, 188-km Issiqxona oldiga 5.41-foto va radarlarni qayd qilish yo‘l belgilari;

1.4 Shahar hududidagi 4N-650-yo‘lining 1-4 km.ga bo‘lgan masofani ta’mirlash, 1-km.ga Sud binosi oldiga, 3-km.ga Axillik ko‘chasiga 3.25-yuqori tezlikni cheklovchi yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

2.

Qaror matni hokimlikning rasmiy vebsaytiga joylashtirilsin hamda “Shirin sadosi” gazetasi bosh muharriri (O.Ashurqulov) ushbu qaror matnini “Shirin sadosi” gazetasida chop etilishi tavsiya etilsin.

3. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash va nazorat qilish shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Xolmatov, shahar hokimi o‘rinbosari Z. Abduvoxidovlar zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **S.Sultonov**